

YAPON TILIDAGI MUROJAAT SO‘ZLARI: LINGVOKULTUROLOGIK VA PRAGMATIK TAHLIL

G'ayratova Zahroxon

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 30.05.2026

Revised: 31.05.2026

Accepted: 01.06.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*murojaat so‘zlari,
yapon tili, keigo,
pragmatika,
lingvokulturologiya,
kommunikatsiya,
hurmat kategoriyasi.*

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada yapon tilidagi murojaat so‘zlarining lingvistik, pragmatik va madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Yapon jamiyatida murojaat shakllari ijtimoiy mavqe, yosh, jins, yaqinlik darajasi hamda kommunikativ vaziyatga qarab tanlanadi. Tadqiqot davomida “-san”, “-sama”, “-kun”, “-chan” kabi affikslarning qo‘llanishi hamda shaxs olmoshlarining murojaatdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, murojaat birliklarining yapon madaniyatidagi hurmat va ierarxiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqligi yoritiladi.

Til insonlar o‘rtasidagi muloqotni ta‘minlovchi asosiy vosita bo‘lib, unda milliy madaniyat va ijtimoiy munosabatlar aks etadi. Ayniqsa, murojaat shakllari har bir xalqning mentaliteti va kommunikativ madaniyatini namoyon etuvchi muhim lingvistik birliklardan biri hisoblanadi. Yapon tilida murojaat so‘zlari juda murakkab tizimga ega bo‘lib, ular nafaqat suhbatdoshga murojaat qilish, balki xurmat, yaqinlik, ierarxiya va ijtimoiy masofani ifodalash vazifasini ham bajaradi.

Yapon jamiyatida kollektivlik va ijtimoiy tartib muhim o‘rin tutgani sababli murojaat shakllarining noto‘g‘ri qo‘llanishi kommunikativ noqulaylikka olib kelishi mumkin. Shu bois yapon tilidagi murojaat birliklarini o‘rganish tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

1. Yapon tilida murojaat so‘zlari tushunchasi

Yapon tilida murojaat shakllari “呼称表現” (koshou hyougen) deb ataladi. Ular insonni ism bilan chaqirish, lavozimini ko‘rsatish yoki xurmatni ifodalash uchun ishlatiladi. Murojaat birliklari quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1. ismga qo‘shimcha qo‘shish orqali;**
- 2. qarindoshlik atamaları orqali;**
- 3. lavozim va kasb nomlari orqali;**
- 4. shaxs olmoshlari orqali;**
- 5. modal so‘zlar orqali;**

Masalan:

1. Ismga qo'shimcha qo'shish orqali;

Tanaka-san

田中さん

Suzuki-sama

すずきさま

Tarou-chyan

たろうちゃん

2. Qarindoshlik atamalari orqali;

Otousan

お父さん

Okaasan

お母さん

3. Lavozi va kasb nomlari orqali;

Sensei

先生

4. Shaxs olmoshlari orqali;

Anata

あなた

5. Modal so'zlar orqali;

Kechirasiz

すみません

Bu birliklarning tanlanishi kommunikativ vaziyatga bog'liq bo'lib, ular ba'zida o'zgarib turadilar.

2. Hurmat affikslari va ularning vazifalari

“-san”

“-san” eng keng qo'llanadigan neytral hurmat shakli hisoblanadi. U erkak va ayollarga, yosh-u qariga nisbatan birdek qo'llash mumkin. Xattoki 3-shaxsga nisbatan lavozimiga qo'shib ishlatish ham mumkin. Bu xurmatning yuqori ko'rinishi xisoblanadi.

Misol:

Yamamoto-san wa gakusei desu.

山本さんは学生です。

(Yamamoto janob/talaba.)

Bu shakl o'zbek tilidagi “aka”, “opa”, “janob” kabi birliklarga ma'lum darajada yaqin hisoblanadi.

“-sama”

=====

“-sama” yuqori darajadagi hurmatni bildiradi. Mijozlarga, rasmiy shaxslarga yoki xatlarda qo‘llanadi.

Misol:

Okyakusama

おきゃくさま

(Hurmatli mijoz)

“-kun”

“-kun” odatda yosh erkaklarga yoki quyi lavozimdagi xodimlarga nisbatan ishlatiladi.

Misol:

Takeshi-kun

たけしくん

“-chan”

“-chan” erkalash va yaqinlik ma’nosini ifodalaydi. Ko‘pincha bolalar va yaqin insonlarga nisbatan qo‘llanadi.

Misol:

Hana-chan

はなちゃん

3. Shaxs olmoshlari va murojaat

Yapon tilida shaxs olmoshlarini ishlatish ham ehtiyotkorlikni talab qiladi. Chunki noto‘g‘ri tanlangan olmosh qo‘pol yoki noqulay eshitalishi mumkin.

“Watashi”

私

Neytral va eng keng tarqalgan shakl.

“Boku”

ぼく

Asosan erkaklar tomonidan norasmiy vaziyatda ishlatiladi.

“Ore”

おれ

Juda norasmiy va erkaklarga xos qo‘polroq shakl.

“Anata”

あなた

“To‘g‘ridan-to‘g‘ri siz” ma’nosini bildiradi, bu qo‘pollik va xurmatsizlikni anglatgani bois yapon tilida ism yoki lavozim bilan murojaat qilish ko‘proq afzal ko‘riladi.

4. Murojaat so‘zlarining pragmatik xususiyatlari

Yapon tilidagi murojaat birliklari pragmatik ma’no kasb etadi. Ular:

1. suhbatdoshga bo‘lgan munosabatni;

2. ijtimoiy masofani;
3. yosh va mavqeni;
4. rasmiylik darajasini ifodalaydi.

Masalan, ish joyida xodim rahbariga murojaatida familiyasiga “-san” qo’shimchasini qo’shish yoki lavozim bilan murojaat qilishi maqsadga muvofiq bo’lib, bu suhbatning davomiyligini ta’minlab beradi:

Tanaka buchou

田中部長

(Bo‘lim boshlig‘i Tanaka)

Do‘stlar o‘rtasida esa qo’shimchalarsiz ism ishlatilishi mumkin. Shunday bo‘lsada, yaponlar ismdan ko‘ra familiya bilan murojaat qilishni afzal ko‘radilar. Chet elliklarga nisbatan ham shunday usulni qo‘llash noqulay bo‘lgani bois, ismni qo‘llashga harakat

5. Yapon va o‘zbek tillaridagi murojaat shakllarining qiyosi

O‘zbek tilida hurmat asosan:

1. “siz” olmoshi;
2. qarindoshlik birliklari;
3. “aka”, “opa”, “xon” kabi qo’shimchalar orqali ifodalanadi.

Yapon tilida esa maxsus affikslar va keigo tizimi muhim rol o‘ynaydi. Har ikki tilda ham kattalarga hurmat ko‘rsatish muhim bo‘lsa-da, yapon tilidagi tizim ancha murakkab va qat’iy hisoblanadi. Ular juda turli jihatdan guruhlariga bo‘linadi. Ularni ajrata olish, vaziyatga nisbatan to‘g‘ri qo‘llay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois yapon tilida nafaqat grammatika balki pragmatikaning ham alohida o‘rni bor.

Yapon tilidagi murojaat so‘zlari nafaqat grammatik birlik, balki milliy madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning muhim ko‘rsatkichidir. Murojaat shakllari orqali hurmat, yaqinlik, ijtimoiy mavqe va kommunikativ vaziyat ifodalanadi. Ayniqsa, “-san”, “-sama”, “-kun”, “-chan” kabi affikslar yapon kommunikativ madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu birliklarni to‘g‘ri qo‘llash yapon tilidagi samarali muloqot uchun muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat suhbatni boshlash, balki uning davomiyligini ham ta’minlovchi vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shibatani M. The Languages of Japan. Cambridge University Press, 1990.
2. Ide S. Japanese Sociolinguistics. Tokyo University Press, 2006.
3. Maynard S. Japanese Communication: Language and Thought in Context. University of Hawaii Press, 1997.
4. Suzuki T. An Introduction to Japanese Linguistics. Tokyo, 2004.
5. Алпатов В.М. Япония: язык и общество. Москва, 1988.